

O'ZBEK TILIDA CHORVACHILIK TERMINOLOGIYASINING
SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH MANBALARI

Kurbanova Guzal Abduraximovna

Termiz davlat pedagogika instituti "Rus tili va adabiyoti" kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada qisqa va ixcham hajmdagi umumiy xulosa va fikrlar chorvachilik sohasiga oid terminlarning o'zbek tilida rivojlanish manbalari masalasiga nisbatan berildi. Albatta har bir kasb egasi soha atamalarining bazaviy istilohiy mazmunini bilishi nafaqat tilshunoslikning, balki globallashuv sharoitida zamonaviy kasb egalarining ham oldida turgan vazifalardan biridir.

Kalit so'zlar: agrar soha, chorvachilik, terminlar, manbalar, til korpusi, bazaviy atamalar

**ИСТОЧНИКИ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ
ЖИВОТНОВОДЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ В УЗБЕКИ**

Абстрактный. В статье даны краткие и емкие общие выводы и мнения по вопросу об источниках развития терминов, связанных с животноводством, в узбекском языке. Конечно, знание основного терминологического содержания отраслевых терминов для каждого специалиста является одной из задач, стоящих не только перед лингвистикой, но и перед современными специалистами в условиях глобализации.

Ключевые слова: аграрный сектор, животноводство, термины, источники, языковой корпус, основные термины.

**SOURCES OF FORMATION AND DEVELOPMENT OF LIVESTOCK
TERMINOLOGY IN UZBEKI**

Abstract. In the article, a short and concise general summary and opinions were given in relation to the issue of sources of development of terms related to the livestock industry in the Uzbek language. Of course, knowing the basic terminological content of field terms for every professional is one of the tasks facing not only linguistics, but also modern professionals in the conditions of globalization.

Key words: agricultural sector, animal husbandry, terms, sources, language corpus, basic terms

KIRISH

O‘zbek terminologiyasi sohasining predmeti, maqsadi va vazifasini yoritish, fan doirasida o‘rganiladigan bosh masalalarning mazmun-mundarijasini belgilash, talabalarda terminologiyaning jumladan chorvachilik terminlarining maxsus ilmiy-texnikaviy ma’nomlarni ifodalovchi termin yoki so‘z birikmalari tizimi, uning muayyan adabiy til so‘z boyligida albatta mavjudligi, leksikaning ajralmas bir qismi ekanligi, terminlar bilan leksika orasida farq borligi xususida bilim va ko‘nikmalar hosil qilish, terminlar shakllanishida intralingvistik va ekstralingvistik omillarning roli, chorvachilikga oid terminlarning strukturgrammatik qurilishi qatlamlari, hosil bo‘lish yo‘llari, terminlar tarkibidagi leksik-semantik jarayonlar, terminlarni tartibga solish, muvofiqlashtirish, terminologik tadqiqotlar, terminologik lug‘atlar borasida ma’lumot berish muhim vazifalardan hisoblanadi.¹

Terminologiyaning shakllanish va taraqqiy etish jarayoni tilga xos so‘z yasalishi qonuniyatlari hamda tilning leksik fondi asosida sodir bo‘ladi. Umumiste’molga oid leksikaning terminlashuvi voqeasi tarixiy hisoblanadi. Bu hodisa til va terminologiya orasidagi ikki tomonlama munosabatning mavjudligini ko‘rsatadi. Mazkur jarayon shuningdek, umumadabiy leksika va terminologik leksika o‘rtasidagi jips aloqalarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Umumadabiy so‘zlar so‘zlashuv tili, dialektlar, lahjalar va sotsial jargon, argolarning leksik boyligi va meyorini tashkil qiladi. Ayni zamonda, umumxalq so‘zlari har qanday milliy til terminologiyasini hamisha to‘ldirib, kentaytirib boruvchi manbalardan biri tarzida e’tirof etiladi.

Umumadabiy agrar va chorva sohasiga oid so‘zlarning terminologik leksika tizimiga ko‘chishi, ya’ni transterminlashuvning ikki turi mavjudligi aniqlangan: terminologiyaga ko‘chgan umumadabiy leksik birliklarning ma’lum qismi o‘z ma’nosini saqlab qolgan holda ishlatiladi: shox, sut, yem, sug‘orish, mol, buzoq, va h.k. Bu o‘ta keng qamrovli leksika qatlami bo‘lib, mavzu jihatdan jamiyat, inson, tabiat, ekologiya, hayvonot (fauna) va o‘simlik dunyosi (flora) bilan mustahkam aloqaga kirgan. Qayd etilgan so‘zlar keng umumadabiy hamda o‘z navbatida, tor, maxsus sohaga taalluqlidir. Mazkur so‘zlarning ifodalanuvchisi va ifodalovchisi turli sohalarda mos tushadi, ammo ular ma’no obykti, axborot ko‘lami, mazmun-ma’no turi bilan farqlanadi.

METODLAR VA NAZARIY TAHLILLAR

Agrar sohada mulkiy munosabatlar qonuniy asoslarining yaratilganligi bu jarayonning kafolatli garoviga aylandi. Xususan, “Er to‘g‘risida” (1990), “O‘zbekistonda tadbirkorlik to‘g‘risida” (1991), “Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to‘g‘risida” (1991), “Ijara to‘g‘risida” (1991), “Dehqon xo‘jaligi

¹ Hamidulla Dadaboyev “O‘ZBEK TERMINOLOGIYASI” Toshkent – 2019 3-b

to'g'risida" (1992), "Xo'jalik jamiyatlari va shirkatlari to'g'risida" (1992), "Er solig'i to'g'risida" (1993), "Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida", "Dehqon xo'jaligi to'g'risida", "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi qonunlari va O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi qabul qilindi. Buning natijasida yuz bergan keng qamrovli ijtimoiy o'zgarishlar milliy lisoniy ongda ham ulkan yangilanishlarni vujudga keltirdi. Ijtimoiy hayot, ijtimoiy tafakkur va til yaxlitligi borliqning lisoniy tasnifi borasida muhim o'zgarishlarni shakllantirdi. Ayniqsa, sohada olib borilayotgan agrar islohotlar, agrar munosabatlarning yangi shakllari agrar terminologiyani maxsus tizim sifatida o'rganish, xalqaro agrar munosabat va aloqalarning rivojlanayotganligi bundagi asosiy omil bo'lgan lisoniy ifodalarga ham alohida e'tibor qaratishni taqozo qilmoqda.²

O'zbek tilida chorvachilik tarmog'ini bildiruvchi tushunchalarning lisoniy ifodasi turli shakliy-struktur, semantik, genetik, derivatsion xususiyatlarga ega bo'lib, alohida mazmuniy maydonni tashkil etadi. Bu mazmuniy maydon empirik nuqtai nazardan juda murakkab, nazariy asosda munosabatda bo'linsa, juda mustahkam va anchayin sodda kognitiv mohiyat va strukturaga egaligi bilan xarakterlanadi. Qiyoslanayotgan tilda ham bu xususiyat xos bo'lib, tadqiqotimiz mobaynida bunga amin bo'ldik.

Yuqoridagi xususiyatlar tilning dialektal maydonida ham uchrab turadi. O'zbek adabiy tili tomonidan otlarning turfa nomlari xalq - sheva tilidan o'zlashtirilgan edi. Otlarning nomlanishida ularga xos belgilar: tashqi ko'rinish-qamishquloq, qilich oyoq, echki oyoq va h.k., nasl - laqayi, yovmuti, bayir va h.k., rang turi va tuslar- bo'z, qo'ng'ir, chipor, to'riq, g'irko'k va h.k., yosh - g'o'nan, do'nan, tallon, to'lon, kaltatoy va h.k., odat, qiliq - gajir, gijing, juyruq va h.k. o'z in'ikosini topgan. Ayni shunday holatni o'zbek chorvachilik terminologiyasi tizimida ko'plab uchratish mumkin.³

MUHOKAMALAR

Xulosa qilib aytganda, til lug'atidagi bo'shliqlarni to'ldirish uchun til taraqqiyotining muayyan davridagi leksik va semantik o'zgarishlarni chuqur o'rganish, davr va jamiyat talablariga javob beradigan mezonlarni ishlab chiqish zarur. Ushbu mezonlarning ilmiy, amaliy va dolzarbligi jamoatchilik ishtiroki va tashabbusiga bog'liq bo'ladi. Yuqoridagi normalar ko'plab tillar uchun universaldir va adabiy til barqarorligini ta'minlash zarurati bilan shakllanadi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, tilda leksik bo'shliqni to'ldirishga alohida lingvistik ehtiyoj yo'q. Chunki tilni talqin qilish imkoniyatlari juda keng va bu xususiyatlar anonim

² Ismailov G'. O'zbek tili terminologik tizimida semantik usulda termin hosil bo'lishi. Filol.fan.nomz.diss.avtoref.- Toshkent, 2011.

³ Ruscha-o'zbekcha lug'at. Ikki tomli. Tom I.-Toshkent, 1983.

tushunchalar (bo'shliqlar) nomsiz qolishining asosiy sababidir. Biroq, bu holat til egalari orasida til energiyasining ko'plab «yo'qotishlariga olib keladi. Shuning uchun aniqlangan leksik bo'shliqlarni, ayniqsa, kuchli ijtimoiy-lingvistik ahamiyatga ega bo'lsa, imkon qadar tezroq bartaraf etish kerak. Eng muhimi, bu borada ishlab chiqilgan mezonlar tilni bosqichma-bosqich rivojlantirish tamoyillariga mos kelishi, shuningdek, til musaffoligini saqlash uchun yetarli darajada asoslanishi kerak.

O'zbek tilshunosligida introlapsni o'rganishga bag'ishlangan asarlar kam. Mavjudlari ham lingvokulturologiya fanidan darsliklarning bob va mavzularidan iborat. Yigirmanchi asrda fundamental bilimlar bilan boyitilgan va to'liq shakllangan o'zbek tilshunosligida tilning leksik tizimidagi bo'shliqlarni to'ldirish g'oyasi turli manbalarda kam uchraydi. Bu til hodisasi lakunlar deb atalmagan paytlarda ham uning mavjudligi va uni bartaraf etish yo'llari haqida jiddiy o'ylashgan. Jumladan, «"Sovet davrida o'zbek adabiy tilining rivojlanishi" kitobida til lug'atining boy manbalari ko'rsatilgan. Bu kitobda, shuningdek, yangi tushunchalarga nom berishda bir xil tushunchaga ega bo'lgan boshqa tildan kelib chiqqan nom til leksikonida nisbatan qulay va oson ommalashishi qayd etilgan⁴. Albatta, boshqa madaniyatdan olingan tushunchani shu madaniyatdagi kabi nomlash to'g'ri. Ammo bu tushunchani bildiruvchi so'z uning burmalarida uchrasa, til musaffoligini saqlashga xizmat qiladi.

XULOSA

Bir so'z bilan aytadigan bo'lsak mazkur masala kam o'rganilganni sababli ushbu soha terminologiyaning jadal taraqqiyotiga qaramay nisbatan kam o'rganilgan terminologik hudud bo'lib qolmoqda. Kutilayotgan natijaga faqat adabiy til lug'ati bilan solishtirganda ma'lum bir sohadagi tushunchalar taqdimotini o'rganish orqali erishish mumkin. O'zbek tilida muhim va zarur chorvachilikga oid so'zlar adabiyotida tilshunoslarning tadqiqotlarini markazlashtirish va tizimlashtirish, boshqarish va tartibga solish ham bu boradagi ishlar samaradorligini ta'minlashi shubhasiz. Ushbu tizimli yondashuv asosida turli xil lug'at mikrotizimlari to'ldirilganda, til lug'ati ham tobora murakkablashadi.

ADABIYOTLAR

1. Abduraximovna, K. G. Z. (2023). FEATURES OF TRANSLATION OF NEW TERMINOLOGICAL VOCABULARY. *International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING*, 3(2).
2. Abduraximovna, K. G. Z. (2023). FEATURES OF TRANSLATION OF NEW TERMINOLOGICAL VOCABULARY. *International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING*, 3(2).

⁴ Развитие узбекского литературного языка в советский период. Т. III. – Ташкент, 1991.

VOLUME-2, ISSUE-4

3. Курбанова, Г. А. (2020). ФОНЕТИКО-ФОНОЛОГИЧЕСКИЕ ИНТЕРПРЕТАЦИИ В РУССКОЙ РЕЧИ УЧАЩИХСЯ УЗБЕКОВ. In *ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В СОВРЕМЕННОЙ НАУКЕ* (pp. 43-46).
4. Бердиева, Ш. Н. (2022). Нон-фикшн как особый тип документальной литературы. Редакционная коллегия, 108.
5. Hamidulla Dadaboyev “O‘zbek terminologiyasi” Toshkent – 2019 3-b
6. Ismailov G‘. O‘zbek tili terminologik tizimida semantik usulda termin hosil bo‘lishi. *Filol.fan.nomz.diss.avtoref.*-Toshkent, 2011.
7. Ruscha-o‘zbekcha lug‘at. Ikki tomli. Tom I.-Toshkent, 1983.
8. Развитие узбекского литературного языка в советский период. Т.Ш. – Ташкент, 1991.

